


Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-avgust)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 6021,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 122,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 56,2 % ni tashkil etdi.



B–Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**–Ishlab chiqaradigan sanoat **D**–Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash, **E**–Suv bilan taʼminlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati 29,2 % ga gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 9,6 % ga, o'sishi kuzatildi.


Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sanoatida 36,4 % ga ,tog`-kon sanoatida 43,7 % ga pasayishi kuzatildi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 32,8 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat




2021- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3384,6 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 56,2 % ini tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining hajmi 126,3 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 2,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali 124,5 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 2,1 %), o'rta-quyi texnologiyali 721,5 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 12,0 %), quyi texnologiyali 2412,3 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 40,1 %) ni tashkil etdi.


Yuqori texnologiyali




O'rta-yuqori texnologiyali



O'rta-quyi texnologiyali



quyi texnologiyali



**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi
mahsulotlarning o'sish sur'ati**

2021- yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 426,7 ming l. 100% spirti (2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 60,5 % ga kamaygan), 647,5 tonna bint (0,6 %) kamaygan bo'lsa, 36,0 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (24,2 %) ishlab chiqarilib kamayishi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar- avgust	2021- yil yanvar- avgust	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	47,5	36,0	-11,5
Aroq, ming l. 100% spirt	1080,4	426,7	-653,7
Sellyuloza, tonna 90%	1219,7	886,2	-333,5
Paxta tolasi, ming tonna	4,9	11,0	6,1
Paxta chigiti, ming tonna	8,4	17,6	9,2
Paxta tiviti (lint), ming tonna	0,4	1,1	0,7
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, ming tonna	20,5	14,3	-6,2
Etilen polimer qoplar, ming tonna	11,2	11,7	0,5
Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln.kVt/s	9311,0	10209,8	898,8
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming Gkal	62,8	89,4	26,6

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo'yicha)



Yumshoq bug'doy
va spelta uni

36,0
ming tonna



Aroq

426,7
ming l. 100% spirt




Sellyuloza

886,2
tonna 90%



Paxta chigiti

17,6
ming tonna



Paxta tiviti (lint)

1,1
ming tonna



Paxta tolasi

11,0
ming tonna



Etilen polimerli qoplar

11,7
ming tonna



Issiqlik elektr
markazlari (IEM)
ishlab chiqargan
elektr energiyasi

10209,8
mln.kVt/s



Bug‘ va issiq suv
(issiqlik energiyasi)

89,4
ming Gkal




Yirik shoxli
qoramollar uchun
tayyor ozuqa

14,3
ming tonna

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 2021- yilning yanvar-avgust oylarida

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2560,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (42,5 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 29,2 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-avgust	2021- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	9311,0	10209,8	898,8
Issiqlik energiyasi, ming gkal	62,8	89,4	26,6

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 43,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.



2021- yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 17,9 % ga pasayishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 2224,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 21,1 % ga o'sishi kuzatildi, jami sanoatdagi ulushi esa 36,9 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 1,2 % ni (2020- yil yanvar-avgust oylarida 3,6 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 33,1 % ni, shuningdek, Guliston shahri 19,1 % ni hamda Mirzaobod tumani 9,6 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishning o'sish sur'atida viloyat (121,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Sirdaryo tumanida (158,9 %) va Mirzaobod tumanida (105,8 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2021- yilning yanvar-avgust oylarida)**

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da
Sirdaryo viloyati	2224,4	100,0	121,1
Guliston sh.	425,3	19,1	105,2
Shirin sh.	18,5	0,8	103,7
Yangiyer sh.	158,1	7,1	116,2
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	86,4	3,9	99,6
Guliston	133,3	6,0	110,7
Mirzaobod	214,1	9,6	105,8
Oqoltin	142,3	6,4	119,3
Sardoba	56,6	2,5	103,3
Sayxunobod	154,6	7,0	112,8
Sirdaryo	736,2	33,1	158,9
Xovos	99,0	4,5	105,2

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1113,9 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.




Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 18,9 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Sayhunobod tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 60,9%), Sirdaryo tumani (54,8 %), Guliston shahri (40,9 %) hamda Sardoba tumanlarida (37,7 %) kuzatildi.

**Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi va indeksi**

	2021-yil yanvar-avgust mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Sirdaryo viloyati	6021,5	122,1
Guliston sh.	653,3	102,5
Shirin sh.	2389,2	109,0
Yangiyer sh.	399,7	109,0
tumanlar:		
Boyovut	235,5	110,3
Guliston	204,5	125,1
Mirzaobod	221,1	98,3
Oqoltin	217,2	121,9
Sardoba	149,4	124,8
Sayxunobod	215,9	103,7
Sirdaryo	1099,4	107,6
Xovos	236,3	120,8

Viloyatda ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, % da




Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 39,6 %), Sirdaryo tumani (18,3 %), Guliston shahri (10,8 %), Yangiyer shahri (6,6 %), hamda Oqoltin tumani (3,6 %), Mirzaobod tumani (3,7 %), va Boyovut (3,9 %) tumanlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Sayxunobod tumani (3,6 %) Guliston tumani (3,4 %) hamda Sardoba tumaniga (2,5 %) to'g'ri kelmoqda.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va
iste'mol mollari ishlab chiqarish**
(2021- yil yanvar-avgust oylari, ming so'mda)

	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	Iste'mol mollari
Sirdaryo viloyati	6964,5	2572,8
Guliston sh.	7101,3	4353,4
Shirin sh.	126412,2	981,1
Yangiyer sh.	9002,1	3559,9
tumanlar:		
Boyovut	1782,3	654,4
Guliston	2741,5	1786,4
Mirzaobod	2928,9	3163,5
Oqoltin	4090,3	2679,6
Sardoba	2223,4	842,2
Sayxunobod	2739,8	1962,1
Sirdaryo	8424,6	5642,0
Xovos	2423,3	1015,4

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'mol mollarining o'sishi (2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da)




**Viloyatdagi hududiy sanoat korxonalari tomonidan ishlab
chiqarilgan mahsulotlar hajmi va ulushi**
(2021- yil yanvar-avgust oylarida)

	Mahsulot hajmi (mlrd. so‘m)	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Sirdaryo viloyati	1949,9	32,4
Guliston sh.	347,4	53,2
Shirin sh.	18,3	0,8
Yangiyer sh.	199,1	49,8
tumanlar:		
Boyovut	207,7	88,2
Guliston	52,7	25,7
Mirzaobod	100,6	45,5
Oqoltin	207,1	95,3
Sardoba	149,4	100,0
Sayxunobod	132,3	61,3
Sirdaryo	469,4	42,7
Xovos	65,9	27,9

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2342,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 38,9 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Sardoba tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (100,0 %), Mirzaobod tumani (71,8 %), Boyovut tumani (89,0 %), Sayxunobod tumani (62,9 %), Xovos tumani (87,7 %) Guliston shahri (68,4 %) hamda Yangiyer shahrida (53,5 %) kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Sirdaryo tumani (52,8 %), Guliston tumani (46,5 %), Oqoltin tumani (58,6 %), hamda Shirin shahrida (0,8 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2021-yil 1-avgust holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 2267 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 586 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 25,8 %) Guliston shahriga, 365 tasi (16,1 %) Sirdaryo tumaniga, 198 tasi (8,7 %) Yangiyer shahriga to'g'ri kelmoqda.



2021- yil yanvar-avgust oylarida viloyatda 346 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 56,4 foizi Guliston shahriga, Boyovut tumani, Mirzaobod tumani va Sirdaryo tumaniga to'g'ri keladi.

Sanoat statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (067) 236-86-23